


TASHABBUSLI BUDJETLASHTIRISH- DAVLAT MOLIYASINING INNOVATSIYASI SIFATIDA

*O'ralova Nodirabegim O'tkirovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
MI-62 guruh talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakatimizda tashabbusli budgetlashtirishning ijtimoiy sohani rivojlantirishdagi o'rni, amalga oshirilayotgan va davlat budgeti hisobidan ajratilayotgan mablag'larning ijrosi va ahamiyati to'g'risida ma'lumotlar berildi, shuningdek, foydalanilgan manbaalar doirasida mavzu yoritib berildi.

Kalit so'zlar: tashabbusli budgetlashtirish, davlat budgeti, "open budget" loyihasi, davlat g'aznasi, kassaviy ijro.

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotni erkinlashtirish va modernizatsiyalash sharoitida davlat moliyasi tizimida iqtisodiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Davlat moliyasini boshqarishdagi islohotlar sharoitida umumdavlat moliya tizimining bosh bo'g'ini- davlat budgetini boshqarish, budget jarayonini tashkil etish tizimidagi islohotlar, xususan, budget ijrosida kassali tizimdan jahon amaliyotida sinalgan va o'zining ijobiy natijalarini bergen davlat budgetining g'azna ijrosiga o'tildi. Quyidagi manbaa asosida jahon tajribasi asosida davlat budgetini shakllarini keltirib o'tamiz;



1-rasm. Muallif ishlanmasi: Jahon tajribasida davlat budgeti ijrosining bir nechta shakllari[1]

Endi, tashabbusli budgetlashtirish mohiyati, uning davlat iqtisodiyoti uchun afzalliklari haqida ham to'xtalib o'tsak. Tashabbusli budgetlashtirish - to'g'ridan-to'g'ri demokratik yondashuvni ifodalaydigan budgetlashtirishdir. U fuqarolarga hukumat faoliyati bilan tanishish hamda davlat resurslarini taqsimlanishini muhokama qilish va ta'sir o'tkazish imkoniyatini beradi. Tashabbusli budgetlashtirish oshkoraliq va hisobdorlikni oshirib, hukumat samarasizligini kamaytirishga va eng mihami, korruption holatlarni oldini olishga yordam beradi. Shuningdek, davlatimizda tashabbusli budgetlashtirish chekka hududlarda istiqomat qiluvchi aholi sharoitlarini

o'rganishda ularning huquq-manfaatlari uchun muhim bo'lgan hukumat qarorlarini qabul qilishga ham ta'sir ko'rsatish orqali inklyuziv boshqaruvni ta'minlaydi. Bu usul korxonani va faoliyatni rivojlantirishga yo'l beradi, yangi bo'limlar yaratish, xizmat sifatini yuksaltirish, sotish va marketingni mustahkamlash uchun keng qamrovli yondashuvlarni amalga oshirishga imkon beradi.

Tashabbusli budgetlashtirish nafaqat davlat balki kompaniya, xususiy firmalar faoliyatida ham bo'lishi mumkin. Shuningdek bu jarayonda, kompaniya maqsad va vazifalarini belgilab, ularni amalga oshirish uchun tegishli moliyaviy resurslarni ajratadi. Bu jarayonda, tashkilotni qo'llab-quvvatlovchi faoliyatlar uchun kerakli miqdor va sarflanadigan mablag'lar, katta iltimos yoki fondlardan olingan grantlar, investorlar tomonidan berilgan moliya, jismoniy va moliyaviy resurslar orqali belgilanadi va boshqariladi. Budgetlashtirishda tashabbusning ornini aniqlash, tashkilotning o'zini rivojlantirishga yo'l bermoq uchun boshqa korxonalarga ta'sir ko'rsatish, yangi bo'limlar va sohalar ochish, xizmatlarni rivojlantirish va sotishni kengaytirish, yangi texnologiyalarga investitsiyalarni ko'paytirish va boshqarish hisoblanadi. Bu shu bilan birga, tashkilotning moliyaviy olishiga va tezroq natijalarni ko'rishiga yordam beradi. Davlat moliyasi tashabbusli budgetlashtirish orqali ilg'or innovatsiyalarni ornatish va ularning rivojlanishiga yordam beradi. Masalan, yangi sohalarga investitsiyalar jalb qilgan holda, innovatsion loyihalarga moliyaviy qo'llanma yaratish, texnologiyalarni o'rganish va rivojlantirishga moliyaviy yordam ko'rsatish bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Aniq masalalar va muammolar mavjud bo'lsa, davlat moliyasi tashabbusli budgetlashtirish orqali innovatsiyalar va yangiliklarni kengaytirish, iqtisodni rivojlantirish, yangi ish o'rnlari yaratish, fuqarolarga yaxshilik ko'rsatish va davlat xizmatlarini yuqori sifatda taqdim etish imkoniyatlarini oshirish uchun moliyaviy yordam berishi maqsadida bajaradi. Bu jarayon mamlakatning sanoat, texnologiya sohalarini rivojlantiradi va global bozorga qarshi kurashishda uni kuchaytiradi. Tashabbusli budgetlashtirish dunyoning bir qator davlatlarida qo'llanilib kelinadi. Misol uchun Germaniya, Braziliya kabi davlatlarni aytish mumkin. Bu bilan uning xalqaro siyosatdagi o'rni kuchaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 10.04.2023 dagi PQ-117-son qarori doirasida ham "Tashabbusli budgetlashtirish amaliyotini yanada takomillashtirish hamda faol mahallalarni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari[2][\[2\]](https://lex.uz/ru/)[\[https://lex.uz/ru/\]](https://lex.uz/ru/)" to'g'risidagi qarorida ham bunga alohida e'tibor berib o'tilgan. Mamlakatimizda ham "Open budget" axborot portalini keng jamoatchilikka joriy etildi. Portalda fuqarolar o'z takliflarini ilgari surish, ovoz berish va g'olib bo'lgan loyihalarni amalga oshirilishini barcha bosqichlarfini kuzatib borish imkoniyatiga egadirlar. Bundan tashqari jamoatchilik nazoratini amalga oshirgan holda loyihalar ijrosini baholab borish mexanizmlari ham yaratilgan. Bundan tashqari, endilikda tuman va shahar budgetlari qo'shimcha mablag'larining tashabbusli budget jarayoni uchun yo'naltiriladigan qismi 30% ga oshirilib, joylarda fuqarolarni qiyab kelayotgan muammolarni hal etish uchun ajratiladigan mablag'lar ko'lami

kengaytirildi. Ma'lumot sifatida bu jarayon ilk bor tajriba sifatida 2021-yilda har bir hududdan bittadan tuman yoki shahar yoki 14ta tuman tanlab olinib amalga oshirilgan[3][<https://www.gazeta.uz/ru/>]

Xulosa va takliflar: Tashabbusli budgetlashtirish tizimi bir kompaniyaning moliyaviy imtiyozlarini yaxshilaydigan bir texnologiyadir. Bu tizim kompaniyalar uchun bir nechta afzalliklarga ega bo'lishi mumkin:

Birinchidan, boshqarish imkoniyatlari. Bu tizim kompaniyaning moliyaviy holatini boshqarishda ma'lumotlarni almashish va tahlil qilish imkoniyatlarini ta'minlaydi.

Ikkinchidan, ommaviy hisobotlar tayyorlash imkoniyatlari: Tashabbusli budgetlashtirish tizimi moliyaviy natijalarni ommaviy hisobotlar sifatida ishlab chiqish imkoniyatini ta'minlaydi. Bu, kompaniyalarning moliyaviy holatlarini dinamik ravishda tahlil qilishlarini amalga oshirishiga imkon beradi. Tashabbusli budgetlashtirish tizimi davlat va kompaniyalar uchun moliyaviy boshqaruvni soddalashtirishda katta yordam beradi va faolliklarini oshirishda samaralidir.